

O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI

Elboy Qulmonov

Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti 2-kurs talabasi Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston davlatchiligi tarixida aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vohalarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishi qay tarzda bo'lganligi haqida so'z yuritilib, ba'tafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Davlatchilik tarixi, dehqonchilik, chorvachilik, mesopotamiya, o'troq aholi, qo'zg'olon

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlanganligini kuzatish mumkin.

Dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo'lishi, xunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat qurollarining takomillashishi mehnat unumdorligining oshishiga olib keldi.

Aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vohalarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Masalan miloddan avvalgi 4- ming yillikda Mesopotamiyada, mil. avvalga 3-ming yillik boshlarida Misrda ilk davlatlar paydo bo'ldi.

O'zbekiston tarixiga doir voqea va hodisalarning tahliliga yangicha yondashish tufayli Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston xududida dastlabki davlatlarining tashkil topishi tarixiga 3-ming yil bo'ldi, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin.

Mil. avv. 1-ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat birlashmalari paydo bo'la boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma'muriy markazi bo'la boradi.

Avestodagi ma'lumotlar, Gerodot va Gekatey asrlari (Qatta Xorazm), shuningdek, Ktesiyning, Qadimgi Baktriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar bu davlatlarining shakllanish jarayonini axmoniylargacha bo'lgan davrda deb xisoblaydilar va mil. av. IX-VII asrlar deb belgilaydilar.

Markaziy Osiyo xalqlari mil. avv. VI-IV asrlarda, ya'ni qarayib 200 yil mobaynida Eron ahamoniylari xukumronligi ostida yashadilar.

Faqat mil.avv. IV asrlarga kelib ahamoniylarning markaziy hokimiyati kuchsizlana boshlagan, zulm asoratida bo'lgan xalqlar o'z mustaqilliklariga erishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Markaziy Osiyoda o'z mustaqilligiga birinchilar qatorida Xorazm vohasi erishdi.

Iskandar Zulqarnayn Eronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, mil.avv. 329 yilning bahorida Xindikush tog'idan oshib Markaziy Osiyo hududlariga kirib keladi.

Xalqning yunon-markazi bosqinchilariga qarshi kurashiga mahalliy sarkardalardan bo'lgan Spitamen boshchilik qiladi. Mil.avv. 327 yilning oxirlarida Sug'diyona Iskandar tomonidan batamom bosib olinib, qo'zg'olon bostirildi.

Mil.avv. IV asr oxirida Iskandar saltanati uch mustaqil davlatga: Makedoniya, Misr, Suriya va sharqqa bo'linib ketadi. Suriyadan to Markaziy Osiyo Hindistonchaga Makedoniyalik Iskandarning eng ishonchli sarkadarlaridan biri Salovkaga tegadi. O'rta Osiyo xalqlarining mil. avv. 312 yildan 250 yilgacha bo'lgan tarixi salavkiylar tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yunon-Baqtriya m.a. II asrning uchinchi choragiga kelib Sharqiy Turkiston orqali kirib kelgan yuechji va sak kabilalari xujumi natijasida butunlay inqirozga uchradi.

Mil. avv. III asrning boshlarida paydo bo'lgan yana bir davlat Kang' davlati edi. Bu davlatning xududi dastlab Sirdaryoning o'rta oqimidagi erlardan (Toshkent vohasi hamda unga tutash tog' va cho'l zonolari) iborat edi.

Mil avv. II-I asrlarda qang'liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni va Xorazmni o'zlariga bo'ysindiradilar.

M.a. I va milodiy II-I asrlarda Qang' davlati iqtisodiy va madaniy jixatdan ancha rivojlangan davlat edi.

Qang' davlatining asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq bo'lib uning xududida ko'chmanchi chorvadorlar ham yashar edi. O'troq aholi asosan vodiya yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan.

M.a. II-I asrlarda O'rta Osiyo xududidagi yana bir mustaqil davlat Toxariston edi. Toxar qabilalari Baqtriyada yunon-Baqtriya xukmdorligini tugatgandan so'ng uni shunday nomlashdi.

Toxarlar qisman ko'chmanchi bo'lib qolaverishgan. Ularda yagona davlat bo'lmaganidek, oliy xukmdor ham yo'q edi, har bir shahar o'z hokimi tomonidan boshqarilgan.

Xitoy manbalarida yuechji deb nomlangan qadimgi massagetlar xunlar tomonidan M.Osiyo ulariga surib chiqarildilar va miloddan avv. 140-130 yillarda ular yunon-Baqtriya kirib kelishdilar. Ular bu beshta xokimlikka birlashib yashadilar. Tez orada yuechji qabilalarining taz'yi ostida yunon-Baqtriya davlati parchalanib ketdi.

V asr o'rtalarida esa O'rta Osiyo xududida yangi qudratli davlat Eftaliylar podshohligi shakllanishi oxiriga yetdi.

Manbalarda baxo berilishicha, 457 yildan boshlab eftaliy podshohi Vaxshunvor Chog'anien, Toxariston va Bazaxshonni uziga bo'ysindirgan.

Massagetlar avlodi — eftalitlar qushonlar siyosatini davom ettirib, O'rta Osiyo, sharqiy eronning bir qismi, Shimoliy Xindiston va Sharqiy Turkistonni xalqlarini yagona davlatga birlashtirdilar.

Eftaliylar davlati markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o'rin tutib, keyinchalik o'z o'rnini 563-567 yillardan so'ng tarix maydonidagi yangi siyosiy kuch-Turk xoqonligiga bo'shatib berdi.

Turk xoqonligi tarkibiga Sharkiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Kaspiy dengizigacha bo'lgan O'rta Osiyo hududi kirar edi.

VII asr urtalarida yirik Arab xalifaligi davlati tashkil topdi. Arab xalifaligi VIII asr boshlarida butun Mavarounnaxrni bosib oldi. Arab istilosi bilan birga bu yerga islom dini ham kirib keldi.

VIII asrning oxiri IX asr boshlarida Arab xalifatligi chuqur siyosiy inqirozga uchradi.

Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan vaziyat xalifalikni sharqiy viloyatlarni va Mavarounnaxrni idora qilishni mahalliy zodagonlar vakillari Toxoriylar va Somoniylarga berishga majbur qildi. Ular tez orada xalifalikdan mustaqil siyosat yurita boshladi.

Ismoil Somoniy davrida davlat tizimini mustahkamlaliga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Natijda qadimgi sharq davlatchiligi an'analariga asoslangan markazlashgan boshqarish tizimi yaratildi.

Narshaxiyning ma'lumotlari bo'yicha, Somoniylar davlatining markaziy boshqaruvi 10 davondan iborat bo'lgan.

X asr oxirlarida Somoniylar davlati qulab, Mavarounnaxrda xukimronlik Qoraxoniylar quliga utdi. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib boshqardilar.

Qoraxoniylar davlatning boshlig'i tamgachxan ya'ni xonlar xoni yoki Qoraxon-ulug' xon deb yuritilgan. Qoraxoniylar davrida yer egaligining iqta shakli keng avj oldi.

O'rta Osiyoning janubiy g'arbidagi qudratli Seldjukiylar davlati XII asr o'rtalarida zaiflasha boshladi. Yuzaga kelgan siyosiy vaziyatda Xorazmshoxlar mamlakati kuchaya boshladi. Xorazmshoxlar unvonini XI asr oxirida Qutbaddin Muxammad tiklagan edi. 1127-1156 yillarda xukmronlik qilgan .O'tgan davrida Xorazm kuchli davlatga aynaldi. Uning vorislari Elarslon (1156-1172) va Alauddin Takash (1172-1200) davrida Xorazm yerlari yanada kengayib u sharqdagi qudratli davlat bo'ldi. Xorazmshax Muxammad davrida (1200-1220) Xorazmga butun Mavarounnahr qo'shib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbek davlatchiligi tarixi" fanidan ma'ruza matnlari
2. "O'zbek davlatchiligi tarixi" Ziyoyev.A Toshkent-2000
3. "Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi" ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot
4. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: Meros, 2002,
5. Murtazaeva R.X. O'zbekiston tarixi. -T.: 2003
6. www.ziynet.uz